



XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTONNING JANUBIY VOHA QISHLOQ XO‘JALIGI TIZIMIDA RO‘Y BERGAN IJTIMOIY VA IQTISODIY O‘ZGARISHLAR

<https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.10791489>

Akmamatov Otabek Yodgorovich
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
(akmamatov86@bk.ru)

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asrning birinchi choragida O‘zbekistonning janubiy voha qishloq xo‘jaligi tizimida ro‘y bergan ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar haqida so‘z boradi.*

XX asr 20 yillarining ikkinchi yarmidan boshlab, keskin ta‘qibga uchragan avvalgi tuzum davrida katta mavqega ega bo‘lgan yirik va o‘rta yer egalari, amirlar, amaldorlar, musulmon ruhoniylari kabi tabaqalar faoliyati ko‘rsatib o‘tilgan. Bu davrda ko‘plab yakka dehqon xo‘jaliklarining xonavayron bo‘lishi natijasida 1918 yilga nisbatan 1920 yil oxirida dehqonchilik 30 foizga, 1922 yil boshlarida 40 foizga pasayib, natijada ekin maydonlari ham qisqargan va aholi turmush sharoiti keskin yomonlashgan.

Muallif tarixiy ma‘lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida XX asrning birinchi yarmida O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi tizimida ro‘y bergan ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarni o‘rgangan va tahlil qilgan.

***Kalit so‘zlar:** Qishloq xo‘jaligi, kollektivlashtirish, sovet hukumati, dehqonlar, kolxozlar, viloyat.*

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ЗЕМЛЕДЕЛЬЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ ЮЖНОГО РЕГИОНА УЗБЕКИСТАНА В ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА

Акматамов Отабек Ёдгорович
Доктор философии по историческим наукам (PhD)
Каршинский инженерно - экономический институт

***Аннотация:** В данной статье говорится о социально-экономических процессах, происходивших в земледельческой системе южного оазиса Узбекистана в первой четверти XX века.*

Начиная со второй половины 20-х годов XX века, в период прежнего режима, подвергшегося резким гонениям, показана деятельность таких классов, как крупные и средние землевладельцы, эмиры, чиновники, мусульманское духовенство, занимавших видное положение. В этот период в результате одомашнивания многих единоличных крестьянских хозяйств в конце 1920 г. по сравнению с 1918 г. сократилось земледелие на



30%, в начале 1922 г.- на 40%, в результате чего сократились и посевные площади, резко ухудшились условия жизни населения.

На основе исторических данных автор на основе доступной научной литературы изучил и проанализировал отдельные аспекты социально-экономических процессов, происходивших в сельскохозяйственной системе Узбекистана в первой половине XX века.

Ключевые слова: сельское хозяйство, коллективизация, Советская власть, крестьяне, колхозы, регион.

SOCIAL AND ECONOMIC CHANGES IN THE AGRICULTURAL SYSTEM OF THE SOUTHERN OASIS OF UZBEKISTAN IN THE FIRST HALF OF THE 20TH CENTURY

Akmamatov Otabek Yodgorovich

Doctor of philosophy in historical sciences (PhD)

Karshi engineering-economics institute

Abstract: This article talks about the social and economic processes that took place in the agricultural system of the southern oasis of Uzbekistan in the first quarter of the 20th century.

Since the second half of the 20th century, during the period of the former regime, which was subjected to severe persecution, the activities of such classes as large and medium-sized landowners, emirs, officials, Muslim clergy, who occupied a prominent position, have been shown. During this period, because of the domestication of many individual peasant farms at the end of 1920, compared with 1918, agriculture decreased by 30%, at the beginning of 1922 - by 40%, because of which the acreage decreased and the living conditions of the population deteriorated sharply.

The author studied and analyzed specific aspects of the social and economic processes that took place in the agricultural system of Uzbekistan in the first half of the 20th century based on available scientific literature.

Keyword: Agriculture, collectivization, Soviet government, peasants, collective farms, region.

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilgan jamoalashtirish siyosati avvalo qishloqning ijtimoiy qiyofasini tubdan o'zgarishga olib kelgan. Avvalgi tuzum davrida katta mavqega ega bo'lgan yirik va o'rta yer egalari, amirlar, amaldorlar, musulmon ruhoniylari kabi tabaqalar faoliyatiga chek qo'yilgan. Bu ijtimoiy qatlamlar sovet hokimiyatining dastlabki yillarida qisman bo'lsada, o'z mavqeini saqlab qolishgan bo'lsalarda, XX asr 20 yillarining ikkinchi yarmidan boshlab, keskin ta'qibga uchragan. Ular o'zlarining asosiy daromadi manbai hisoblangan xususiy yer, vaqf mulklari va davlat yordamidan mosuvo bo'lgan. Endigina barpo etilayotgan sovet hukumati eski ijtimoiy tuzilmaning dehqonlar, kosiblar, hunarmandlar, savdogarlar qatlamiga teginmaydilar, ular mayda va o'rta mulkdorlar sinfini tashkil etgan.



O'zbekistonda qishloq aholisining deyarli barchasini yakka tartibdagi dehqonlar tashkil etgan. Bu davrda ko'plab yakka dehqon xo'jaliklarining xonavayron bo'lishi natijasida 1918 yilga nisbatan 1920 yil oxirida dehqonchilik 30 foizga, 1922 yil boshlarida 40 foizga pasayib, natijada ekin maydonlari ham qisqargan[1] va aholi turmush sharoiti keskin yomonlashgan.

ASOSIY QISM

Kooperatsiya harakatida ham yakka dehqon xo'jaliklarining o'rni katta bo'lib bu xo'jaliklarning katta qismi kooperatsiyalarga birlashgan edi. Yakka dehqon xo'jaliklari o'zlarining xususiy yerida qattiq mehnat qilib, hamma narsani tejamkorlik bilan ishlatgan. Imkon qadar daromadni ko'paytirishga harakat qilgan. Bu jarayon sovet hukumati va partiya rahbarlarini tashvishga solib, guyo-ki, yakka dehqon xo'jaliklarini mulkdor sinfga aylanish xavfini keltirib chiqarib buning oldini olish maqsadida sovet hukumati yakka dehqon xo'jaliklarini yiriklashtirish tadbirini olib borgan.

Og'ir siyosiy vaziyat, iqtisodiy inqiroz tufayli qishloq xo'jaligi ham tanazzulga uchrab, qurg'oqchilik, qishloqdagi siyosiy qarama-qarshiliklar ekin maydonlarini qayta ishlashga to'sqinlik qilgan. Qolaversa, xonavayron bo'lgan ko'pchilik dehqon xo'jaliklarida yerga qadash uchun urug', boqish uchun chorva mollari mavjud emas edi. Bunday holat vaziyatni yanada og'irlashtirib, aholi turmush sharoitining yomonlashuvida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekistonning boshqa hududlarida bo'lgani singari Qashqadaryo vohasida ham ocharchilik aholiga doimo xavf solib turgan. Xirmondan 1-2 kilogrammdan olgan dehqonlar ham qamalgan. Holbuki, dehqonlarning bolalari xonadonlarida och holatda yashashgan. Jamoa xo'jaliklari a'zolari ocharchilik tufayli chorva mollarini suygan yoki sotib yuborgan. 1936 yil 3 oktabrda okrug militsiyasi boshlig'i Vorobyov yuqori organlarga g'alla hosili bermaganligi tufayli Behbudiy rayon jamoasi xo'jaliklari aholisi kolhoz ish hayvonlarini sotish ommaviy tus olganligini xabar qilgan. Masalan, Ko'chkak qishloq sovetidagi "Guliston" kolhozida 6 ta ot va 4 ta ho'kiz sotilgan. Oxunboboyev, "Qizil dehqon" kolhozlarida ham shu holatlar aniqlangan, chunki davlat tomonidan aholining oziq-ovqat iste'mol darajasi diyarli qiziqmagan.

Dalada asosan xotin-qizlar mehnatidan foydalanilib, va'da qilingan 8 soatlik ish kuniga amal qilinmagan. Paxta yakkaxonligining o'rnatilishi kuchli oziq-ovqat tanqisligini keltirib chiqargan. Poliz va bog'dorchilik ekin maydonlari o'rniga paxta ekilishi tufayli kartoshka, piyoz, sabzi, meva-sabzavotlari bilan aholini ta'minlashda qisman bo'lsa-da, muammolar kelib chiqqan.

Aholi sovet hukumati vakillarining zulmidan bezib oziq-ovqat topish ilinjida o'zlari yashab turgan joylarini tashlab boshqa joylarga ko'chib ketishgan. Masalan, 1936 yili noyabrda okrug partiya qo'mitasi tomonidan Dehqonobod rayoni jamoasi



xo'jaliklari faoliyatini o'rganish uchun yuborilgan Kinshakov "Dehqonobod rayoni jamoa xo'jaliklaridagi siyosiy-ommaviy va madaniy ishlari holati to'g'risida"gi hisobotida xo'jaliklarning og'ir ahvoli haqida ma'lumotlarni keltirgan. Hisobotda ta'kidlanishicha, rayondagi Voroshilov jamoa xo'jaligidagi 72 ta xonadondan faqat 29 tasi qolgan. Ikkita qishloq, hatto rais ham uy joylarini tashlab, chiqib ketgan. Kolxozdagi 80 ta ho'kizdan 36 tasi qolgan. Rayonning "Qizil Sharq" kolxozida 3-5 ta xonadon qolgan xolos, Qazicha, Chechak qishloqlarida ham aholi o'z joylarini tashlab chiqib ketishgan. Umuman, rayon kolxozlaridan 1439 ta xonadon ketib qolgan. Ularning ko'pchiligi Boysun va Turkmaniston hududlariga borib joylashishgan[2]. Bu kabi holatlarni vohaning har bir rayonida uchratish mumkin edi.

Keyingi yillardan sovet davlati ijtimoiy sohaga ham muayyan darajada e'tibor qaratib, bu sohaga davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar ko'paytirilgan. Masalan, 1924-1928 yillarda O'zbekistonda turli sohalarga jami 30,5 mln rubl kapital mablag' sarflanib, shuning 7,3 mln rubli transport va aloqaga, 4,8 mln rubli uy-joy qurilishiga, 2,8 mln rubli ijtimoiy-madaniy tadbirlar uchun ajratilgan[3]. Bu mablag' iqtisodiy inqirozga uchragan O'zbekiston uchun dengizdan tomchidek bir gap edi. Qolaversa uy-joy qurilishi uchun ajratilgan mablag', asosan shahar ishchilari uchun bo'lib, qishloqlarda aholi o'z kuchi va imkoniyatidan kelib chiqib, paxsa va loydan kichik-kichik uy-joylar qurishga majbur edi. Qishloq uylarida hech bir qulaylik bo'lmay, ular yarim yerto'la ko'rinishida edi va sanitariya talablariga umuman javob bermagan.

1935 yil Qashqadaryo okrug budjetining xarajat qismi 27312,8 ming rubl, 1938 yili bu 38884 ming rubl edi. Xarajatlarning 80 foizi ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy ta'minotga ajratilgan.

Yakka dehqon xo'jaliklari qishloq xo'jaligida asosiy ishchi kuchi bo'lib, yetishtirilgan mahsulotlar, asosan ularning mehnati tufayli qo'lga kiritilgan. Ular tufayli aholi eng zarur qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari bilan qiyin sharoitda ta'minlab turilgan. Qolaversa, hukumat yakka dehqon xo'jaliklariga paxtachilikni rivojlantiruvchi kuch sifatida ham qaragan. 1928 yili ular qishloq aholisining 98,8 foizini tashkil etib, yetishtirilgan paxtaning 98,7 foizi yakka dehqon xo'jaliklari yordamida yaratildi.

Demak, viloyatda batraklar va kambag'allar soni bo'yicha Shahrisabz va Kitob rayonlari yetakchilik qilgan. Shahrisabzdagi 25 ta kolxozda 580 nafar batrak, 835 nafar kambag'al, 309 nafar o'rta hol dehqon faoliyat ko'rsatgan. Umuman viloyatda kambag'al dehqon xo'jaliklari ko'pchilikni tashkil etgan.

Viloyatda o'rta hol dehqonlar soni bo'yicha raqamlar tahlil etilganda, eng ko'p o'rta hol dehqonlar Kitob rayoni hisobiga to'g'ri kelgan bo'lsa, Beshkent rayonida eng kam bo'lib, 33 nafar o'rta hol dehqon ro'yxatga olingan. Bu davrda



quloq xo‘jaliklari qisman bo‘lsada saqlanib qolgan. Masalan, 1930 yil aprelda Beshkent rayonida 56 ga., Yakkabog‘ rayonida 49 ga., Shahrisabz rayonida 72 ga. paxta maydonlari qo‘loq xo‘jaliklariga qarashli bo‘lgan[5].

1930 yil may-iyul oylarida Qashqadaryo viloyati kolxozlari a‘zolari orasida “tozalash” o‘tkazilgan “Tozalashdan” so‘ng viloyat kolxozlarini a‘zolarining ijtimoiy tarkibi quyidagicha edi: 50 foiz batraklar, 41,1 foiz kambag‘allar, 6,6 foiz o‘rta hol dehqonlar, 2,3 foiz xizmatchi va boshqalar. Shuningdek, kolhoz boshqaruvi tarkibida ayollar 6,6 foizni tashkil etgan[6]

VKP (b) MK 1930 yil 26 iyulda “Don tayorlash jarayoniga ommani safarbar etishni tashkil etishning chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilingan. Hujjatga muvofiq sovet organlarining barcha tizimi don tayyorlash jarayoniga jalb etish asosida quloqlarga qarshi kurash kuchaytirilgan. Kimki, don narxini oshirsa, uni yo‘q qilishga bo‘lgan harakati qattiq jazolanishi xususida ham belgilangan. Sovet hukumati shu davrda har qanday jinoyatga nisbatan jazoni qattiq tayinlagan.

Qashqadaryoda 1930 yil don hosilini yetishtirish jarayonida kurash avjiga chiqqan. Shahrisabzda bu davrda o‘zbeklar bilan birga tojiklar, yaxudiyalar yashab, ular o‘rtasida ham kichik to‘qnashuvlar sodir bo‘lgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Mulkdorlar yetishtirgan hosilni sovet davlatining tortib olishi tufayli aholi moddiy turmushi yomonlashgan. Bu esa aholi orasida noroziliklarning kuchayishiga olib kelgan. Masalan, G‘uzor bozori daloli Majid – Diyor 100 pud g‘allani sovet davlatiga berishdan ko‘ra chuqurga ko‘mib tashlagan. Shuningdek, G‘uzorda mulla Ro‘zi 2000 pud, Abduljalil boy 3000 pud, Subhonqul Primqulov 1000 pud, Ma‘ruf Og‘ayev 1000 pud, Murod Ma‘sud boy 1000 pud, Sh.Xo‘jaqulov 1000 pud, Ubay Maxsum 1000 pud, Normurod Xasan boy 1000 pud g‘allani sovet davlatidan yashirib quygan[7]. Bunday misollarni har bir qishloqda uchratish mumkin edi.

Ayniqsa Qashqadaryo viloyatining lalmi yerlari hududlarida, chorvachilik bo‘yicha ixtisoslashgan xo‘jaliklarida sovet hukumatiga qarshi jiddiy qarshiliklar bo‘lgan. Shu bois, viloyatda jamoalashtirish jarayoni hudud aholisining xususiyatidan kelib chiqib, notekis rivojlangan edi. Agar suvli yerlardagi xo‘jaliklarning kolxozlarga kirish tez sur‘atlarda ketgan bo‘lsa, lalmi yerlarda juda sust borgan.

Kolxozlar faoliyatida kamchiliklar juda ko‘p edi. Ko‘pchilik kolxozchilar savodsiz va rahbar kadrlar xo‘jalikni boshqarish bo‘yicha yetarli tajribaga ega emasdi. Kolxozlarda mehnat sharoiti to‘g‘ri tashkil etilmagan. Qashqadaryo viloyatida paxta ekiladigan 5 ta rayondagi 536 jamoa xo‘jaligini boshqarayotgan raislari 247 tasi mutlaqo savodsiz edi. Shuningdek, qishloq sovetlari raislari 112 ta bo‘lib, ulardan 14 tasi o‘qish-yozishni bilmagan. Rahbarlarning hisob-kitob bo‘yicha bilimlari yetarli darajada bo‘lmaganligi tufayli kolxozlarda daromadlar to‘g‘ri



taqsimlanmagan. Shu bois kolxozlarning o'z maqsadlariga yarasha taqdirlanmaganligiga olib kelgan. Yig'in-terim jarayonlari uzoq vaqtga cho'zilgan. Qolaversa, bu anana mahalliy hokimiyat organlari qishloqlardagi jiddiy o'zgarishlarga tayyor emas edi.

Sovet organlari faqat tezlikda ommani yoppasiga jamoa xo'jaliklarga kiritishdan nariga o'tmadi. Sovet davlati yakka dehqon xo'jaliklarini turli yo'llar bilan tugatish chora-tadbirlarini olib borgan. Yirik yer egalarini yerlarini tortib olish, o'ziga to'q xo'jaliklarni "quloq" qilish, kichik dehqon xo'jaliklariga jamoa xo'jaligiga kirish sharti bilan yerlarini traktorlar yordamida haydab berish, turli kreditlar berish va soliq imtiyozlarini taqdim etish usullari bilan tugatgan.

O'zbekistonda 1939 yildagi aholi ro'yxatiga ko'ra, aholining 62 foizini kolxozchilar tashkil etgan bo'lsa, 1,2 foizini yakka dehqon xo'jaliklari tashkil etgan[8]. Yoppasiga kollektivlashtirish tufayli yakka dehqonlar kolxozchilarga aylantirilgan. O'zbekistonda XX asrning 20 - yillari o'rtalarida boshlangan kollektivlashtirish 30 - yillarning oxiriga kelib deyarli tugatilgan.

Demak, sovet davlati kambag'al batrak, o'rta hol, boy, ruhoni va savdogar kabi tabaqalar o'rniga kolxozchi va ishchilar ko'rinishida yangi ijtimoiy guruh shakllantirilgan. Turmush sharoiti va moddiy ahvolidan yomonlashuvi tufayli ko'plab din peshvolari va boshqa sohalar, birinchi navbatda, dehqonchilik bilan kun ko'ra boshlagan.

Sovet hokimiyati ayollarning jamiyatdagi o'rnini oshirish va ulardan targ'ibot ishlarida foydalanish borasida ham muayyan ishlarni olib borgan. Sovetlarning III Umumo'zbekiston quriltoyida Y. Oxunboboyev ma'ruzasida ayollar faoliyatini oshirish haqida gapirgan. Qashqadaryoda ham ming nafarlab ayollar "Hujum" harakatida "faol" ishtirok etish bo'yicha targ'ibotlar avj oldirgan. Natijada ayollar yakka dehqon xo'jaliklarini kolxozlarga jalb etishda asosiy kuchlardan biriga aylangan.

1926 yil 1 sentabrda Qashqadaryo viloyatida ayollarning maishiy hayotini yaxshilash bo'yicha markaziy komissiya (XUBT) tuzildi. Bu komissiya ayollarning huquqiy, tibbiy va maorif, ayollar maslahatxonasi, yasli va bolalar bog'chasi kabi masalalar bilan shug'ullangan. Komissiya yordamida 1927 yil martda 8 ta artel tashkil etildi. Artellar asosan tikuvchilik, tuquvchilik bilan shug'ullandi. Artellarda viloyatdan 3500 nafardan ziyod ayollar ishlagan. 1927 yil 22-26 sentabrda xotin-qizlarning viloyat quriltoyga chaqirilib, unda "Xalq ta'limi va ayollar", "Sog'liqni saqlash va ayollar" kabi masalalar muhokama etilgan[9]. Voha ayollarining jamiyatdagi o'rnini ortib, ular paranjilarini tashlab komsomol va partiya tashkilotlarila faoliyat ko'rsata boshlagan. Masalan, 1928 yili G'uzor rayonidan Ikroma Qayumova va Avazovalar birinchilardan bo'lib parangi tashlagan. Mehriniso Jamilova 1925 yildayoq komsomol safiga kirib, 1929-1931 yillarda Qashqadaryo viloyati



komsomol komiteti sekretari, 1936 yili “Xujum” arteli va Shahrisabzdagi “Xujum” fabrikasi direktori vazifasini bajargan.

1929 yili “Uzbekpaxtasoyuz” tashkiloti yo‘nalishida viloyatda 413 nafar xotin-qizlar faoliyat ko‘rsatgan. Shu yili mayda viloyatda ayollar bilan ishlash masalasiga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tib, unda paranji tashlab, davlat tashkilotlariga ishga chiqqan ayollar turli ta‘qiblarga uchrayotganligi tanqid qilingan. Masalan, Qarshi rayonidan 18 yoshli Roxatbibi Tursunova paranji tashlaganligi uchun o‘ldirilganligi qayd etilgan[10].

Qashqadaryo viloyati ayollari turli yig‘ilishlar va anjumanlarda ham faol ishtirok eta boshlagan. Masalan, 1935 yil oktabrda Toshkent shahrida O‘zbekiston ayollarning I-chi syezdi o‘tkazilib, unda G‘uzor rayonidan Umarova delegat sifatida ishtirok etib, u anjumanda ma‘ruza qilgan. Yakkabog‘ rayoni Samoq qishlog‘idan Lola Boboyeva ham qator anjumanlarida delegat sifatida ishtirok etgan. Lola Boboyeva kolxoz raisligidan rayon partiya komiteti sekretarigacha ko‘tarilgan. Shuningdek, Beshkent rayonidan Navruzoy Arabova, Sadimova, Qarshi rayoni “III Internatsional” kolxozi raisi Bodomoy Vohidovalar partiya organlari lavozimlariga saylandi. O‘zbekiston bo‘yicha bu davrda 200 ming nafar ayollar rahbarlik lavozimlariga jalb etilgan[11].

XULOSA

O‘zbekistonda amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati qishloqlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida jiddiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Bu avvalo aholini ijtimoiy tabaqalaridagi o‘zgarishlarda ko‘zga tashlanadi. Qadimdan o‘zbek qishloqlarida mavjud bo‘lib kelgan xususiy yer egalari-boylar, o‘rta hol dehqonlar, din peshvolari, savdogarlar, kambag‘al dehqonlar, chorakor kabi ijtimoiy guruhlar o‘rniga kolxozchi va ishchi tabaqasi shakllantirilgan. Bu davrda xotin-qizlar ijtimoiy tabaqasining mavqeini ko‘tarish va ulardan sovet hukumati manfaatlari yo‘lida foydalanish tadbirlari ko‘rilishi natijasida, mazkur tabaqa vakillari sovet va partiya tashkilotlari faoliyatida faollik ko‘rsatishgan. Ayollarning kolxozchi, deputat, o‘qituvchi sifatida jamiyatdagi o‘rni oshib borgan.

ADABIYOTLAR:

1. Бухара в государственном хозяйственном плане 1923-1924 гг. Старая Бухара, 1923. – С. 15-16.
2. Akmamatov O.Y. Social and Economic Processes That Took Place In The Agricultural System Of Uzbekistan In The First Half Of The 20th Century. In volume 17, of Eurasian Journal of History, Geography and Economics (EJHGE) February 2023. P.35-39
3. Ravshanov P. Qizil saltanat iskanjasida. Qatag‘on. – Toshkent.: Sharq, 2011. B. – 108-109.



4. Советский Узбекистан за 40 лет. С т.сб.– Т.: Узбекистан, 1964.– С. 251.
5. O‘z MA, R-296-fond, 1-ro‘xat, 594-ish, 3-8-varaqlar.
6. Akmamatov O. Social and economic changes in agriculture of Uzbekistan in the early xx century. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*. ISSN 2697-2212 Online: <https://academicjournal.io> Special Issue, Aug- 2021. P. 788-794.
7. O‘z MA, R-196-fond, 1-ro‘xat, 148-ish, 188-varaq.
8. “Falлачи” (Гузарского РПК органи) 1930 йил. 22 август
9. Итоги Всесоюзной переписи населения 1959 г. Узбекской ССР.– Москва, 1962.– С. 43.
10. Yu.A. Ergasheva. I.Kh. Jabborova. From the history of construction of water facilities in Kashkadarya oasis. In Volume 27, ISSN: 2795-7659, of *Eurasian Journal of History, Geography and Economics (EJHGE)* December 2023. P.1-6.
11. O‘z MA, R-85-fond, 1-ro‘xat, 3626-ish, 33-41-varaqlar.
12. Axmedov, B. (2023). YEVIPOPA CHORVACHILIGIDA QORAKO‘LCHILIK. *Journal of Social Sciences*, 4(01).
13. Axmedov, B. (2021). Qorako'lchilik sohasini ilmiy tadqiqotlarda o'rganilishining ahamiyati. *Journal of Social Sciences*, 2(01).
14. Otakulovich, K. K. (2023). THE IMPORTANCE OF CREATIVE WORKS DURING THE TIME OF AMIR TEMUR (IN THE CASE OF THE SHAHRISABZ STATE MUSEUM RESERVE). *Journal of Universal Science Research*, 1(2), 475-479.
15. Хосиятов, Х. О. (2022). ҚАШҚАДАРЁ ВА СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТЛАРИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ НУФУЗЛИ ХАЛҚАРО ТАШКИЛОТЛАР ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР БИЛАН АЛОҚАЛАРИ. *Gospodarka i Innowacje.*, 28, 186-190.
16. Rustamov, R. R. (2018). ATTRIBUTIVE CHANGES IN THE INFORMATION SPACE SYSTEM IN THE CONTEXT OF GEOPOLITICAL COMPETITION. *Theoretical & Applied Science*, (3), 170-173.
17. Rustamov Ramz Rizoqulovich, & To‘Rayeva Sanobar Halimovna (2021). QADIMGI DUNYO ILK TARG‘IBOT SISTEMALARINING SHAKLLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (3), 130-137.